

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
RUS FILOLOGIYASI FAKULTETI  
RUS TILI VA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**



**AXBOROT XATI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**«RUS TILI: O'RGANISH VA O'QITISHDA AN'ANA VA  
INNOVATSIYALAR»**

**Hurmatli hamkasblar!**

Sizni «RUS TILI: O'RGANISH VA O'QITISHDA AN'ANA VA INNOVATSIYALAR» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz.

**Anjuman tashkilotchisi:** O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Rus filologiyasi fakulteti Rus tili va o'qitish metodikasi kafedrasi.

**O'tkazish sanasi:** 2024-yil 11-noyabr.

**O'tkazish joyi:** O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (rektorat, 2-qavat, faollar zali)

**Anjumanning maqsadi** – rus tilini o'rganish sohasidagi milliy va xalqaro tajribani to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish, rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasini rivojlantirishning dolzarb tendensiyalari va istiqbollarini muhokama qilish va tahlil qilish.

**ANJUMANNING ASOSIY YO'NALISHLARI:**

- Zamonaviy dunyoda rus tilining o'rni.
- Zamonaviy rus tili va adabiyotini o'rganishning dolzarb muammolari.
- Rus tili ilmiy va kasbiy muloqot tili sifatida.
- Rus tili va adabiyotini o'qitish metodikasidagi zamonaviy tendensiyalar.
- Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik muammolari.
- Tarjima va tarjimashunoslik masalalari.
- Rus tili va adabiyoti bo'yicha yangi avlod darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish metodologiyasi: mazmuni, tuzilishi, texnologiyalari.

E’lon qilingan mavzu doirasida boshqa muammolar ham qo‘yilishi mumkin.

**Anjuman o‘tkazish shakli** – oflays-sirtqi.

**Anjumanning ishchi tillari:** rus.

Anjumanga yetakchi olimlar, oliv ta’lim muassasalari o‘qituvchilar, ilmiy va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari xodimlari, umumiy ta’lim pedagoglari, kasb-hunar ta’limi pedagoglari, doktorantlar, magistrantlar, talabalar taklif etiladi.

Anjumanda ishtirok etish uchun **2024-yil 10-novabrga** qadar anjuman yo‘nalishi ko‘rsatilgan maqolani elektron pochtaga: [khegava\\_1@rambler.ru](mailto:khegava_1@rambler.ru); [irina\\_che\\_07@mail.ru](mailto:irina_che_07@mail.ru) yoki Telegram orqali: +99890 324 07 34 (Xegay Valentina Mixaylovna); +99894 675 12 08 (Cherginskaya Irina Aleksandrovna) yuborish lozim.

Anjuman materiallari (maqolalari) chop etilishi rejorashtirilgan.

**Maqolalarni rasmiylashtirilishiga qo‘yiladigan talablar**

Matnni rasmiylashtirishga doir talablar: matn hajmi – 3-6 bet; fayl formati – docx; chetlar: yuqori va pastki, chap va o‘ng tomon – 2 sm; kitob shaklida; shrift – Times New Roman; o‘lcham – 14; abzas – 1 sm; satrlararo interval – 1,5. **Adabiyotlarni rasmiylashtirish tartibi:** maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida keltiriladi. Matndagi adabiyotlar ro‘yxatidagi tegishli manbara havolalar kvadrat qavs ichida joylashtiriladi, masalan: [1, c. 277].

Maqola matnidan oldin quyidagilar ko‘rsatiladi:  
muallifning (mualliflarning) initsiallari, familiyasi,  
ilmiy darajasi, lavozimi va ish joyi,  
shahar, mamlakat  
elektron pochta manzili – yuqori o‘ng burchakda;  
maqolaning nomi (katta harflar bilan) – markazdan;  
300 dan 600 belgigacha rus tilidagi annotatsiya (bo‘sh joylarni qo‘shgan holda);  
kalit so‘zlar (5-8 so‘z).

**Rasm:** har qanday grafik ma’lumot (xarita, rasm, sxema, diagramma) arab raqamlari va “Rasm” so‘zi bilan belgilanadi. Rasmning nomi o‘rtasidan boshlab qalin harflar bilan yozilib, rasm ostida satr qoldiriladi. Tasvir matn ustida va ostida bitta satr bilan ajratiladi. Barcha tasvirlarga matnda havola bo‘lishi kerak (1-rasm).

**Jadvallar:** arab raqamlari va “jadval” so‘zi bilan belgilanadi. O‘ng tomonda tartib raqami va “jadval” so‘zi yoziladi, keyingi satrda esa o‘rtada qalin harflar bilan jadval nomi yoziladi.

Maqola fayli yo‘nalish raqami va birinchi muallifning FISh bilan nomlanadi.

Bitta maqola mualliflarining soni ikkitadan oshmasligi kerak.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ilmiy maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Ma’lumotlarning noto‘g’riligi va plagiat mavjudligi uchun muallif (lar) javobgar bo‘ladi. Anjumanning barcha ishtirokchilariga to‘plamning elektron variantlari va sertifikatlar taqdim etiladi. Anjuman materiallari

to‘plamini Google Scholar’da indeksatsiya qilish ko‘zda tutilgan. To‘plamda nashr qilish O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchilari uchun 100 000 so‘mni tashkil etadi, xorijiy mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar uchun nashr BEPUL.

Xizmat safari xarajatlari (yo‘lkira, yashash va ovqatlanish) xizmat safariga yuboruvchi tomon hisobidan. To‘lov maqolaning to‘plamga kiritilganligi haqidagi tasdiqnomani olgandan so‘ng 2024-yil 10-noyabrdan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

To‘lov kartasi raqami 8600 5304 5459 5110 (Usmanov Otabek).

Aloqa uchun tashkiliy qo‘mitaning kontakt ma’lumotlari:

+99893 537 11 50 – Lagay Yelena Aleksandrovna

+99890 324 07 34 – Xegay Valentina Mixaylovna

+99894 158 82 03 – Usmanov Otabek Iqbolovich

Maqola rasmiylashtirilish namunasi:

**Н.Н.Иванов  
к.фил.н., доцент кафедры русского языка  
и методики преподавания УзГУМЯ**

Ташкент, Узбекистан

ivanov.@russian.com

## **СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА**

**Аннотация.** Статья посвящена .....

**Ключевые слова:** инфографика, ментальные карты, современные технологии преподавания, коммуникация.

Xxx  
xxx. Xxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxxx.

### **Литература**

1. Рождественский Ю.В. Принципы современной риторики. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 176 с.
2. Лазуткина Е.М. Прагматика // Культура русской речи: Энциклопедический словарь-справочник / Под ред. Л.Ю. Иванова, А.П. Сковородникова, Е.Н. Ширяева и др. – М.: Флинта: Наука, 2003. – С. 500-502.

*Bildirilgan qiziqishingiz uchun tashakkur  
va sermahsul hamkorlikka umid qilamiz!*